



## TIJORAT BANK BIZNESINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

**Sulxonberdiyeva Shodiya Shuxrat qizi**  
*TMI, Bank ishi fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Tijorat bank biznesi rivojlanishida innovatsion yondashuvlar ahamiyati qanday ekanligini ushbu maqolada aks ettirilgan. Tijorat bank faoliyatiga ta'sir etuvchi axborot texnologiyalari, innovatsion g'oyalar hamda raqamli marketing, shuningdek, tijorat banklarida yangicha yondashuvni talab qiladigan texnologiyalarning ahamiyati yoritib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *tijorat bank, raqamli axborotlar, raqamli marketing, innovatsion texnologiyalar, bank, invistitsiya.*

### Kirish

Tijorat banki - bu aholidan omonatlarni qabul qiluvchi va foya olish uchun iste'mol va investitsiya maqsadlarida kreditlar beruvchi moliya muassasasi. Bu, shuningdek, chakana bank va investitsiya bankidan farqlash uchun korporatsiyalar yoki yirik yoki o'rta biznes bilan shug'ullanadigan bank yoki yirik bankning bo'linmasiga murojaat qilishi mumkin. Tijorat banklariga xususiy sektor banklari va davlat sektori banklari kiradi. Iqtisodiyotning innovatsion tarmoqlarini takomillashtirish O'zbekiston iqtisodiyotidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashni ta'minlash esa davlatning iqtisodiy siyosati oldiga qo'yilgan strategik vazifalar biridir. Shuningdek, tijorat bank faoliyatiga innovatsiyalarning joriy etilishi mamlakatning iqtisodiy o'sishiga, uning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirishga, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga, shu jumladan, moliyaviy tarmoqlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklari aholidan, xusan, mijozlaridan turli turdag'i depozitlarni, shu jumladan omonat hisobvaraqlari va muddatli depozitlarni qabul qiladi. Bu depozitlar mijoz ma'lum vaqtdan keyin talab qilganda qaytariladi. Tijorat banklari turli shakldagi kreditlar va avanslar beradi. Ular, shuningdek, o'z mijozlarining vasiyatnomalari bo'yicha ishonchli vakil sifatida harakat qilishadi.

Kredit yaratish funksiyasi kredit va to'lov vositachisi asosida shakllanadi. Tijorat banklari o'zlashtirgan depozitlaridan kredit olish uchun foydalanadilar. Chek muomalasi va o'tkazma hisob-kitoblari asosida kreditlar hosilaviy depozitlarga aylantiriladi. Ma'lum darajada, hosilaviy mablag'lar dastlabki omonatlarga nisbatan oraliq marta ko'paytirilib, bu tijorat banklarining iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qilish uchun harakatlantiruvchi kuchini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Mamlakatimizda banklarning innovatsion faoliyatini takomillashtirishga alohida e'tibor berilib, uning taraqqiyotini ta'minlash maqsadida 2020–2025-yillarga mo'ljallangan “O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida bank tizimining barqarorligini safarbar etish, iqtisodiyotni kredit bilan ta'minlash-

da banklarning ishtirokini kengaytirish bank xizmatlari sohasida vazifalar belgilab berildi. Hamda moliyaviy sektorni izchil isloh qilish davomida qator chora-tadbirlar amalga oshirildi va natijada ilg‘or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur huquqiy shart-sharoitlar yaratildi.

Shu bilan birga, bank sohasidagi hozirgi holat tahlili bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi, davlat ishtirokidagi banklarda menejment va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatining yetarli emasligi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to‘sinqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Moliyaviy xizmatlarning ommabopligini oshirish, banklarning hududlarga kirib borishini kengaytirish va barcha aholi punktlarida bir xil turdagи xizmatlar ko‘rsatilishini ta’minalash bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rilishi lozim.

Bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta’minalash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda inson omili ta’sirini kamaytirish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlar ko‘rish talab etilmoqda. Bank boshqaruv organi ushbu jarayonlarni amalga oshirish uchun moliyaviy, moddiy, tashkiliy, huquqiy, ma’naviy, psixologik shart-sharoitlarni yaratish, boshqaruv vazifalarining bevosita ijro etilishi bilan bog‘liq jarayonlarni o‘z ichiga oladi.

Banklarning innovatsion faoliyati turli darajada murakkab jarayonni ifodalaydi, chunki yangi g‘oyalar, taklif etilayotgan yangi mahsulotlar bank va mijoz man faatlariga mos kelishi asosida uzlusiz davom etishi bank muvaffaqiyatini ta’minalashga xizmat qiladi. Shunday qilib, bank xizmatlari bozoridagi taqdim etilayotgan yangi yoki takomillashgan xizmat turlari banklarning innovatsion mahsulotlari hisoblanadi. Demak, banklarning mahsulotlari innovatsion yangi yoki takomillashgan xizmatlarni taqdim etish va operatsiyalar bajarish orqali namoyon bo‘ladi. Bank mahsulotlariga talab darajasi esa bank xizmatlari bo‘yicha yangilikning samaradorligi orqali belgilanadi. Bank faoliyatidagi innovatsiyalar mohiyatini bir necha guruhlarga tasniflash maqsadga muvofiq: mahsulot innovatsiyasi, texnologik innovatsiya, marketing innovatsiyasi, boshqaruv innovatsiyasi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar bank sohasida yangi elektron mahsulotlar va xizmatlarni joriy etish bilan bir qatorda ularni taklif qilayotgan tashkilotlarning rivojlanishini ko‘rish imkonini beradi.

Xulosa shuki, tijorat bank biznesini rivojlantirish uchun fan, investitsiya, texnologiyalarni o‘rni juda beqiyosdir. Banklar esa yuqori innovatsion potensialga ega iqtisodiy subyekt hisoblanadi, ularning amalga oshirayotgan innovatsion faoliyati nafaqat banklarning o‘zini, shuningdek, boshqa sohalar faoliyatining ham rivojlanishiga ta’sir etadi. Muvaffaqiyatlari innovatsion siyosat istiqbolli rivojlanishni ta’milaydi va natijada banklarning raqobatdoshligi innovatsion mexanizmlarni joriy qilish orqali mustahkamlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimiz miqyosida innovatsion jarayonlarning yanada rivojlanishiga olib keladi. Ta’kidlash lozimki, respublikamiz bank-moliya tizimini isloh qilish va mustahkamlash bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, iqtisodiyotni kreditlash ko‘lamini

kengaytirish, ko'rsatilayotgan bank xizmatlari spektorlarini ko'paytirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini berdi.

Shu bilan birga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda tadbirkorlik subyektlari bilan to'laqonli hamkorlik munosabatlarini o'rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash, aholi va xo'jalik subyektlarining bank tizimiga ishonchli institutsional hamkor sifatida qarashlarini mustahkamlash vazifalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Moliyaviy innovatsiyalardan faol foydalanish kredit tashkilotlarining moliya bozoridagi mavqeini mustahkamlashga olib keladi, bu esa o'z o'rnida har xil turdag'i tijorat banklari o'rtasidagi mijozlar uchun raqobatdosh sharoitni oshiradi.

Banklarda moliyaviy innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish hozirgi kunda eng dolzarb mavzulardan biri, joriy etilayotgan innovatsiyalar nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganib chiqiladi, mahalliy va xorijiy tajriba batafsil tahlil qilinadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. 2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-5992-son <https://lex.uz/docs/-4811025>.
2. Яковенко С.Н., Тимченко А.А. Финансовые инновации в деятельности коммерческих банков: теоретико-экономические аспекты. Современные проблемы науки и образования. 2013.
3. Курбанова, Д. (2023). Tijorat bank biznesini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире.
4. Мишина А.А. Финансовые инновации: классификации и виды. Государственный аудит: Право. Экономика. 2017.
5. <https://www.investopedia.com>
6. <https://lex.uz>